

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**MASHINASOZLIK  
ILMIY-TEXNIKA JURNALI**

\*\*\*

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ**

**НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
МАШИНОСТРОЕНИЕ**

\*\*\*

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS REPUBLIC  
OF UZBEKISTAN  
ANDIJAN MACHINE-BUILDING INSTITUTE  
SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL  
MACHINE BUILDING**

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-dekabrda 310/10-son qarori bilan Andijon mashinasozlik institutining “Mashinasozlik” ilmiy-texnika jurnali “TEXNIKA” va “IQTISODIYOT” fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

Ushbu jurnalda chop etilgan materiallar tahririyatning yozma ruxsatisiz to‘liq yoki qisman chop etilishi mumkin emas. Tahririyatning fikri mualliflar fikri bilan har doim mos tushmasligi mumkin. Ilmiy-texnika jurnalida yozilgan materiallarning haqqoniyligi uchun maqolaning mualliflari mas‘uldirlar.

---

MASHINASOZLIK  
ILMIY-TEXNIKA JURNALI

**Bosh muharrir:**

U.M.Turdialiyev – texnika fanlari doktori, k.i.x.

**Mas’ul muharrir:**

U.A.Madrahimov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**T A H R I R H A Y ’ A T I**

Negmatov Soyibjon Sodiqovich – texnika fanlari doktori, professor O‘ZRFA akademigi (TDTU);  
Abralov Maxmud Abralovich – texnika fanlari doktori, professor (TDTU);  
Dunyashin Nikolay Sergeevich – texnika fanlari doktori, professor (TDTU);  
Norxudjayev Fayzulla Ramazanovich – texnika fanlari doktori, professor (TDTU);  
Pirmatov Nurali Berdiyarovich – texnika fanlari doktori, professor (TDTU);  
Salixanova Dilnoza Saidakbarovna – texnika fanlari doktori, professor (O‘ZRFA UNKI);  
Siddikov Ilxomjon Xakimovich – texnika fanlari doktori, professor (TIQXMMI);  
Fayzimatov Shuhrat Numanovich – texnika fanlari doktori, professor (FarPI);  
Xakimov Ortiqali Sharipovich – texnika fanlari doktori, professor (Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti);  
Xo‘jayev Ismatillo Qo‘shiyevich – texnika fanlari doktori, professor (Mexanika instituti);  
Ipatov Oleg Sergeevich – professor (Sankt-Peterburg politexnika universiteti, Rossiya);  
Naumkin Nikolay Ivanovich - p.f.d., t.f.n., professor. (Mordov milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya);  
Aliyev Suxrob Rayimjonovich – fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (AndMI);  
Shen Zhili – professor (Shimoliy Xitoy texnologiyalar universiteti, Xitoy);  
Hu Fuwen – professor (Shimoliy Xitoy texnologiyalar universiteti, Xitoy);  
Won Cholyeon – professor (Janubiy Koreya Milliy tadqiqotlar fondi, Janubiy Koreya);  
Celio Pina – professor (Setubal politexnika universiteti, Portugaliya);  
Ricardo Baptista – professor (Setubal politexnika universiteti, Portugaliya);  
Rui Vilela – professor (Setubal politexnika universiteti, Portugaliya);  
Dmitriy Albertovich Konovalov - t.f.n., professor (Voronej davlat texnika universiteti);  
Мухаметшин Вячеслав Шарифуллович – директор Института нефти и газа федерального государственного бюджетного образовательного учреждения высшего образования «Уфимский государственный нефтяной технический университет» (филиал в г.Октябрьском), доктор геологоминералогических наук, профессор.  
Nimchik Aleksey Grigorevich – kimyo fanlari doktori, professor (TDTU Olmaliq filiali)  
Muftaydinov Qiyomiddin – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (AndMI);  
Zokirov Saidfozil – i.f.d., (Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti);  
Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna - t.f.d., dotsent (AndMI)  
Jo‘raxonov Muzaffar Eskanderovich – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (AndMI);  
Ermatov Akmaljon – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (AndMI);  
Qosimov Karimjon – texnika fanlari doktori, professor (AndMI);  
Yusupova Malikaxon – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (AndMI);  
Akbarov Xatamjon Ulmasaliyevich – texnika fanlari nomzodi, dotsent (AndMI);  
Mirzayev Otabek Abdiraximovich – texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (AndMI);  
Soxibova Zarnigorxon Mutalibjon qizi – fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (AndMI);  
Raxmonov O‘ktam Kamolovich – texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (TDTU, Olmaliq filiali);  
Xoshimov Xalimjon Xamidjanovich – texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (AndMI).  
Kuluyev Ruslan Raisovich - texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (TDTU).

**Texnik muharrir:**

B.I.Iminov, M.B.Kenjayeva – Andijon mashinasozlik instituti nashriyoti.

**Tahririyat manzili:** Andijon shahar, Bobur shox ko‘cha, 56-uy. **Tel:** +998 74-224-70-88 (1016)

**Veb sayt:** [www.andmiedu.uz](http://www.andmiedu.uz)

**e-mail:** [andmi.jurnal@mail.ru](mailto:andmi.jurnal@mail.ru)

*“Mashinasozlik” ilmiy-texnika jurnali O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2020 yil 28- fevraldagi 04-53-raqamli guvohnomasiga binoan chop etiladi.*

<b>Mashinasozlik va mashinashunoslik. Mashinasozlikda materiallarga ishlov berish. Metallurgiya. Aviatsiya texnikasi</b>	
Характеристика фосфоритов центральных Кызылкумов <i>Орипова З.М., Ортикова С.С., Турдалиев У.М.</i>	4
Takomillashgan linterlash jarayoni va arrali linter uskunalarning ish unumdorligini oshirish <i>Madrahimov D.U., To‘ychiyev Sh.Sh.</i>	11
Аналитическая оценка силы микрорезания при абразивоструйной обработке металлических поверхностей <i>Искандарова Н.К.</i>	16
Elektrodlar qoplamasi tarkibidagi legirlovchi elementlarning payvand chok xususiyatlariga ta’siri <i>Umarov A.M.</i>	24
<b>Energetika va elektrotexnika. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini elektrlashtirish texnologiyasi. Elektronika</b>	
Sanoat korxonalarini elektr tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yuklama ko‘rsatkichlari va elektr energiya sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri <i>To‘xtashev A.A., Kadirov K.Sh.</i>	30
6,10/0.4 kV kuchlanishli ekspluatatsiyadagi kuch transformatorlarining pastki chulg‘amida kuchlanishni rostlovchi o‘ramlari soni va ko‘ndalang kesim yuzasini hisoblash <i>Qobilov M.X., To‘ychiyev Z.Z.</i>	39
<b>Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash texnologiyasi</b>	
Определение оптимальных параметров реактивной гидротурбины на основе колеса сегнера <i>Узбеков М.О., Урмонов С.Р.</i>	45
Kolosnik yo‘lakchalari bo‘ylab chigitlar to‘plamining harakati <i>Mamasharipov A.A.</i>	54
Sanoat pechlarining, yaratilish tarixi, ahamiyati va qo‘llanilish sohalari <i>Soxibova Z.M.</i>	59
<b>Transport</b>	
Motor moyi sifatini avtomatik nazorat qilishda pezo elementlarining o‘rni va ahamiyati <i>Saydaliyev I.N.</i>	63
Avtomobilsozlik sanoatida innovatsion indeks, asosiy tendensiyalar va muammolar <i>Islomov Sh.E., Shavqiyev E.A.</i>	72
Avtomobil polimer detallarini mahalliy polimer kompozitsion materiallardan quyish parametrlarini optimallashtirish <i>Almataev N.T.</i>	78
<b>Iqtisodiyot</b>	
Исламская финансовая система <i>Гулямов С.С., Шермухамедов А.Т., Саримсаков Х., Шермухамедов Б.А.</i>	83
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ularning sanoatda va boshqa sohalardagi o‘rni va ta’siri. (Andijon viloyati misolida) <i>Ataxanov K.A.</i>	97
Ta’lim xizmatlari bozorida tadbirkorlikning mazmuni va mohiyati <i>Abdullayev A., Abdusattorov S.H.</i>	105
Кичик бизнес барқарор ривожланишида молиявий ресурсларнинг шаклланиш босқичлари <i>Кетманов А.М.</i>	111
Роль малого бизнеса в экономике страны, его дальнейшее развитие <i>Кенжаева М.Б.</i>	118

## TAʼLIM XIZMATLARI BOZORIDA TADBIRKORLIKNING MAZMUNI VA MOHIYATI

### ЗНАЧЕНИЕ И СУЩНОСТЬ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА НА РЫНКЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ

### THE MEANING AND ESSENCE OF ENTREPRENEURSHIP IN THE MARKET OF EDUCATIONAL SERVICES.

**Abdullayev Abdujabbor**

*Andijon mashinasozlik instituti*

*“Axborot texnologiyalari” kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)*

[abdullayevabduzabbor08@gmail.com](mailto:abdullayevabduzabbor08@gmail.com) +998 90 268-49-47

**Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o’gli**

*Namangan muhandislik qurilish instituti*

*ilmiy tadqiqotchisi(PhD)*

[sodikjonabdusattorov@gmail.com](mailto:sodikjonabdusattorov@gmail.com) +998 97 960-09-90

#### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola bugungi kunda jadallik bilan rivojlanib borayotgan ta’lim xizmatlari bozorining asl mazmun-mohiyati va jahon miqyosida o’zining allaqachon mustahkam o’rniga ega bo’lib ulgurgan, asli davlat funksiyasi hisoblangan ta’lim sohasiga talab va taklif qoidalari asosida kirib kelgan holda nafaqat moliyaviy, qolaversa, ulkan ijtimoiy foyda olib kelishi allaqachon o’z isbotini topib ulgurgan nodavlat ta’lim tadbirkorligining mohiyatini ochib beradi. Unda yangi “Ta’limkor” atamasi sohaga tadbiqi taklif etiladi.*

**Kalit so’zlar:** *nodavlat ta’lim, ta’lim xizmatlari bozori, ta’lim xizmatlarini taqdim etuvchi tadbirkor, ta’limkor, tadbirkorlik bozori qoidalari, edupreneurs, educational entrepreneurs.*

#### АННОТАЦИЯ

*В данной статье рассматривается сущность современного быстро развивающегося рынка образовательных услуг и правила спроса и предложения в сфере образования, которая уже завоевала прочные позиции в мире и считается государственной функцией. Негосударственное образовательное предпринимательство, которое уже зарекомендовало себя как приносящее не только финансовую, но и огромную социальную выгоду. Предлагается применить к данной сфере новый термин « Ta’limkor».*

**Ключевые слова:** *негосударственное образование, рынок образовательных услуг, предприниматель, предоставляющий образовательные услуги, “ta’limkor”, правила предпринимательского рынка, “edupreneurs”, “educational entrepreneurs”*

#### ABSTRACT

*This article is about the real essence of today's rapidly developing market of educational services and reveals the potential of successful non-governmental educational entrepreneurship that has already been proven that it will bring not only financial, but also huge social benefits by entering the field of education, which is actually a state function, based on the rules of supply and demand. It proposes the application of the new term "Ta’limkor" to the field.*

**Keywords:** *non-state education, educational services market, entrepreneur providing educational services, “ta’limkor”, rules of the entrepreneurial market, edupreneurs, educational entrepreneurs.*

Jahonda ta'lim xizmatlari bozori yildan-yilga o'z jozibasini oshirib, nodavlat ta'lim xizmatlari bilan shug'ullanishni maqsad qilgan ko'plab tadbirkorlarni jalb qilmoqda. Jahon tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, AQShda xususiy ta'lim muassasalari ta'lim tizimida muhim o'rin egallagan holda, boshlang'ich va o'rta maktablarning 25% ga yaqinini, barcha kollej va universitetlarning esa qariyb 20 foizini tashkil qiladi. Hindistonda boshlang'ich maktablarning qariyb 22 foizi va o'rta maktablarning 47 foizi xususiy bo'lsa, oliy ta'limda xususiy kollejlari va universitetlar umumiy o'quv yurtlarining 60% dan ortig'ida faoliyat olib boradi. Janubiy Koreyada boshlang'ich va o'rta maktablarning taxminan 20% xususiy bo'lib, oliy ta'limda xususiy universitetlar muassasalarning 80% ni tashkil qiladi. Yaponiyada esa boshlang'ich va o'rta maktablarning 30% ga yaqini, oliy ta'lim universitetlarining taxminan 77% i xususiydir[1].

Hozirgi kunda jahon reytingida 1-o'rinni egallab turgan Amerikaning Harvard Universiteti ham xususiy universitet hisoblanib [2], 49.444 milliard dollar umumiy kapitalga ega [3]. Bu universitet o'z mamlakatining nufuzini oshiribgina qolmay, nafaqat Amerika, qolaversa, butun jahon iqtisodining barcha tarmoqlari uchun eng zamonaviy va yetuk kadrlarni yetishtirib bermoqda. Jahonda "davlat tadbirkorlik bilan emas, uning nazorati bilan shug'ullanishi kerak" degan nazariyaga asoslangan holda xususiy ta'limning ulushini tobora orttirishga bo'lgan harakatlar barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda jadal sur'atlarda o'sib bormoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim xizmatlari bozorida tadbirkorlik sezilarli darajada o'sib bormoqda. Texnologiyalardagi yutuqlar va innovatsion ta'lim usullariga bo'lgan talabning ortib borishi bilan tadbirkorlar turli ta'lim platformalari, mahsulotlari va xizmatlarini yaratish va kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Dastlab ushbu tadbirkorlarning asosiy faoliyat maydoni bo'lgan ta'lim xizmatlari bozori bilan tanishib chiqish lozim. "**Ta'lim xizmatlari bozori**" atamasi ta'lim mahsulotlari va xizmatlarini sotib olish va sotishni o'z ichiga olgan iqtisodiy tizim yoki sektorni anglatadi. Bu bozor ta'lim bilan bog'liq keng ko'lamli faoliyatni, jumladan, nodavlat va davlat maktabgacha ta'lim muassasalari, davlat va xususiy maktab ta'limi, davlat va xususiy oliy ta'lim muassasalari, o'quv dasturlari, repetitorlik xizmatlari, onlayn kurslar, o'quv materiallari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Keng ma'noda ta'lim xizmatlari bozori bilim, ko'nikma va ma'lumotlarni to'lov yoki boshqa kompensatsiya shakllari evaziga yetkazish bilan bog'liq bitimlar va almashinuvlarni qamrab oladi. Bu bozor turli xildagi sarmoyadorlarni, masalan, ta'lim muassasalari (maktablar, kollejlari, universitetlar), xususiy repetitorlar, ta'lim texnologiyalari kompaniyalari, o'quv materiallarini nashr etuvchilar va ta'lim mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etuvchi boshqa tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim xizmatlari bozori faoliyatiga hukumat siyosati, texnologik taraqqiyot, madaniy tendensiyalar va ishchi kuchining muayyan malakalariga bo'lgan talab kabi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu bozor ma'lum bir jamiyatda ta'lim olish huquqi, sifati va arzonligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuningdek, u yangi texnologiyalar va o'qitish usullari paydo bo'lishi orqali doimiy o'zgarishlar va innovatsiyalar bilan boyib boradi.

Davlatning klassik 3 funksiyasiga – mudofaa, sog'liqni saqlash va ta'lim – ko'ra ta'lim bu o'z-o'zidan davlatning zimmasidagi soha bo'lishi zarur. Lekin bozor iqtisodiyotining ko'rinmas qo'llari hatto ushbu ta'lim sohasini ham o'z ta'sir doirasidan chetda qoldirmagan holda, ta'lim xizmatlari bozorida "ta'lim xizmatlarini taqdim etuvchi tadbirkor" subyektini yaratdi. "**Ta'lim xizmatlarini taqdim etuvchi tadbirkor**" - bu ta'lim sohasidagi turli ehtiyoj va muammolarni hal qilish uchun imkoniyatlarni aniqlaydigan va innovatsion yechimlarni yaratib, ulardan moliyaviy foyda oladigan shaxs yoki shaxslar guruhi hisoblanadi.

Dunyo miqyosida bunday turdagi tadbirkorlar allaqachon iqtisodiyotdagi o'zlarining alohida o'rni va nomlariga ega bo'lib ulguranganlar. Ular ba'zan 'education entrepreneurs [4] (ta'lim tadbirkorlari), 'educational entrepreneurs [5] (ta'limga oid tadbirkorlar) deb, yoki

shunchaki ‘edupreneurs [6] deb ataladi. Ko‘rib turganimizdek, jahon miqyosida “Ta‘lim xizmatlarini taqdim etuvchi tadbirkor” tushunchasining o‘z maxsus atamasi mavjud. Lekin o‘zbek imloviy lug‘atida, bu tushuncha hatto jahon iqtisodiyotida ham qo‘llanilishi boshlanganiga ko‘p bo‘lmaganligi uchun, bunday ma‘no beruvchi so‘zni uchratmaymiz. Bu tushunchani bildiruvchi xalqaro “edupreneur” so‘zi yaratilishiga bir e‘tibor bersak, u ikki inglizcha so‘zlar, “education”(ta‘lim) va “entrepreneur”(tadbirkor) so‘zlari birlashuvidan kelib chiqqan. O‘zbek tilida ham o‘ymakor, san‘atkor, pillakor yoki paxtakor kabi o‘z ish faoliyatining asosini ko‘rsatib beruvchi kasb nomlari mavjud.

Ushbu tendensiyadan kelib chiqqan holda, qolaversa, 5 ta alohida so‘zlar birikmasidan tashkil topgan “Ta‘lim xizmatlarini taqdim etuvchi tadbirkor” degan tushunchani ifodalashni osonlashtirish uchun ham **“Ta‘limkor”** ya‘ni **“ta‘lim xizmatlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkor”** degan ma‘noni bildiruvchi atamani taklif qilmoqchimiz.


O‘zbekistonda ham nodavlat ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish, ta‘limning yuqori sifatini ta‘minlashda davlat va nodavlat ta‘lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish, shuningdek, nodavlat ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish sohasidagi yuridik shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrdagi “Nodavlat ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida” qaroridagi “Nodavlat ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash” passporti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni kabi qonuniy asoslar joriy etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim to‘g‘risidagi qonunining [7] 4-moddasida belgilangan Ta‘lim sohasidagi asosiy prinsiplaridan biri “insonning butun hayoti davomida ta‘lim olishi” prinsipini jadal rivojlanib borayotgan nafaqat mahalliy, qolaversa, global mehnat bozori standartlariga mos ravishda amalga oshirishga ta‘lim xizmatlari bozoridagi tadbirkorlar katta yordam berayotgani hech kimga sir emas. Aynan shu moddaning “jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi” prinsipining bajarilishida ham biz o‘z sohasining ilmini yaxshi egallagan haqiqiy jonkuyar, bilimli va salohiyatli pedagoglarning ijtimoiy holatlari yanada yaxshilanishiga ta‘lim xizmatlari bozoridagi tadbirkorlar o‘z xissalarini qo‘shyotganlarini ko‘rishimiz mumkin. Shu nuqtada Ta‘lim xizmatlari bozorida tadbirkorlikning mazmuni va salohiyatini yanada ochib berish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan 2024-yilning birinchi choragida O‘zbekistonda o‘rtacha oylik ish haqlari miqdori bo‘yicha taqdim etilgan statistik ma‘lumotga e‘tibor qaratamiz (1-rasm).

Unga ko‘ra ta‘lim (3 mln 435 ming so‘m) sohasi boshqa sohalarga nisbatan eng quyidan faqatgina bir pog‘ona yuqorigi o‘rinda qolishda davom etmoqda. Ushbu statistik ma‘lumotdan biz 2 turli signal olishimiz mumkin:

Birinchi, ta‘lim sohasidagi hodimlarning oylik maoshlari yetishmasligi natijasida, ular qo‘shimcha daromad manbaalarini izlashga – “qo‘shimcha biznes qilishga”, masalan, savdo, hunarmandchilik, dehqonchilik, va yoki taksistlik qilishga – majbur bo‘lishadi. Bu esa ularning ta‘limga e‘tibori kamayishiga, va o‘z navbatida bu ta‘lim sifatining tushishiga olib kelmoqda desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Lekin, agar ta‘lim xizmatlari bozoriga o‘z fanlari yoki sohaslarining yetuk mutaxassislari bo‘lgan ustozlar daromadlarini oshirish maqsadida

kirib kelsalar, yoki ta'limkorlar ularni jalb qilsalar, bu nafaqat ularning o'zlariga moliyaviy tomondan, qolaversa, butun jamiyat uchun ham manfaatli bo'ladi.




**1-rasm. O'zbekistonda O'rtacha oylik ish haqining sohalar kesimida o'zgarib boorish dinamikasi (2020-2024-yillar) [8].**

Ikkinchidan, ta'lim sohasida ishlovchi hodimlarning soni juda ko'p (1mln 169 mingdan ziyod) ekanligi ham ularni arzon ishchi kuchi sifatida ishlatilishiga, va bu orqali yaqin kelajakda aslida jamiyatdagi eng buyuk va savobli kasb bo'lgan o'qituvchilikning jozibadorligi so'nishiga sabab bo'lishi mumkin. Biroq bu holatdan ta'lim xizmatlari bozorida faoliyat yuritayogan tadbirkorlarning yohud ta'limkorlarning eng bilimli va salohiyatli kadrlarni tanlab, ularga katta oylik maoshlar taklif qilgan holda, o'zlarining bozordagi ko'plab raqobatchilaridan yanada sifatli ish olib borishga urinayotganlari sohada hali pedagoglarning jamiyatda ijtimoiy himoyalinishiga imkon bor degan umidlarni bermoqda.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda ta'lim xizmatlari bozorida tadbirkorlikning rivojlanishi nafaqat ushbu sektor vakillarining moliyaviy foydaga ega bo'lishlariga, bilimli kadrlarning qadrsizlanishining oldi olinishiga, qolaversa, O'zbekistonda ta'lim sifatini yaxshilanishiga bevosita va davlat ta'lim muassasalari va hodimlarini ham yanada rivojlanishga undagan holda bilvosita ta'sir etadi. Bizning bundan keyingi maqsadimiz ta'lim xizmatlari bozorida tadbirkorlar o'z faoliyatlarining tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini qanday tartibda amalga oshirishlari kerakligi borasida optimal qo'llanmani ishlab chiqishdan iborat bo'lishi kerak.

Ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlar nafaqat moliyaviy foyda olish maqsadi, qolaversa, ta'limga bo'lgan ishtiyoqi, jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatish istagi va mavjud muammolarga nisbatan innovatsion yechimlar yarata olish jihatlarini ham o'zida jam qilgan bo'lishi kerak. Ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlar o'z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishlari uchun turli xil omillarga e'tibor berishlari zarurdir (2-rasm).



2-rasm. *Istiqbolli ta'limkor inobatga olishi kerak bo'lgan omillar* [9].

**Bozordagi kamchiliklarni aniqlash.** Ta'lim xizmatlari sohasidagi tadbirkorlar bozordagi bo'shliqlar va qondirilmagan ehtiyojlarni aniqlashga muhim bo'lishlari kerak. Bu ishchi kuchidagi muayyan malaka kamchiliklarini bartaraf etishdan tortib, turli xil ta'lim uslublariga ega bo'lgan shaxslar uchun muqobil o'quv formatlarini taqdim etishgacha bo'lishi mumkin. Maqsadli auditoriyaning nozik talablarini tushunish g'ijum bozorda aks sado beradigan va ajralib turadigan xizmatlarni yaratish uchun juda muhimdir.

**Texnologiyalar integratsiyasi va EdTech (Ta'lim texnologiyalari) innovatsiyasi.** Ta'limkorlar o'rganish tajribasini tubdan o'zgartirish uchun texnologiyalardan foydalanmoqdalar. EdTech startaplari interaktiv va jozibador kontent, virtual sinflar va shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalarini taklif qiluvchi platformalarni ishlab chiqmoqda. Sun'iy intellekt, virtual reallik va boshqa rivojlanayotgan texnologiyalarning integratsiyasi tadbirkorlar uchun ta'lim xizmatlari samaradorligi va ta'sir doirasini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

**Maqsadli va barqaror modellarni yaratish.** Ta'limkorlar kengaytiriladigan va barqaror biznes modellarini yaratishi kerak. Bu keng miqyosda texnologiyalardan foydalanish, ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydigan daromad oqimlarini yaratishni o'z ichiga oladi. Masshtablilik tadbirkorlarga kengroq auditoriyaga ta'sir o'tkazish va ta'lim landshaftining o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashish imkonini beradi.

**Doimiy ta'lim yo'nalishlarini qo'llash.** Tadbirkorlar uzluksiz malaka oshirish va kasbiy o'sishga intilayotgan shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi dasturlarni ishlab chiqish orqali doimiy ta'limning o'sib borayotgan tendensiyasidan foydalanmoqda. Moslashuvchan va modulli kurslar, sertifikatlar va mikro kreditlash dasturlarini taklif qilish tadbirkorlarga o'z faoliyati davomida doimiy ta'limning muhimligini tan oladigan o'rganuvchilar bozoriga kirish imkonini beradi.

**Global kengayish va madaniy sezgirlik.** Ta'lim xizmatlari sohasidagi tadbirkorlar global miqyosda o'z ta'sir doirasini tobora kengaytirmoqda. Biroq, muvaffaqiyatli kengayish turli xil madaniy va lingvistik farqlarni tushunishni talab qiladi. Ta'limkorlar o'z xizmatlarini turli mintaqalarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirishlari kerak, shu bilan birga kontent dolzarb va madaniy jihatdan sezgirlikni saqlab qolishi ham muhimdir.

**Nazorat qilish muammolarni hal qilish.** Ta'lim xizmatlari bo'yicha tadbirkorlik faoliyati qoidalar va akkreditatsiya standartlarining murakkab landshaftini boshqarishni o'z ichiga oladi. Tadbirkorlar o'quvchilar va institutsional hamkorlar o'rtasida ishonchni mustahkamlash uchun ta'lim qoidalarini bilishi va ularga rioya qilishi kerak. Ushbu muammolarni hal qilish strategik yondashuvni va ba'zi hollarda tashkil etilgan ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni talab qiladi.

**Hamkorlik orqali innovatsiyalarni rivojlantirish.** Ta'limkorlar innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun an'anaviy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini topmoqda. Maktablar, kollejlari va universitetlar bilan hamkorlik ta'limkorlarga qimmatli tushunchalar, resurslardan foydalanish hamda ta'lim xizmatlarini sinab ko'rish va takomillashtirish platformasini taqdim etishi mumkin. Startaplar va tashkil etilgan institutlarning o'zaro hamkorlikdagi sa'y-harakatlari ikkala tomon uchun ham manfaatli qo'shimcha samaradorlikni yaratishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi rivojlanib borayotgan raqamli dunyoda hatto ta'lim xizmatlari bozorida ham sifatli xizmat va mahsulotga bo'lgan talab ushbu bozorning kuchsiz va zamondan ortda qoladigan subyektlarini chetga chiqargan holda, ta'lim tadbirkorlarining har qanday yangiliklarga moslashuvchanligi va raqobatbardoshligi yuqori bo'lishi kerakligini dolzarb vazifa ekanligini ochib bermoqda. Qolaversa, nodavlat ta'lim bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari ta'sirida davlat ta'lim tashkilotlari ham endilikda bozor uchun kurashishlariga to'g'ri kelmoqda. Bu esa alal oqibat, O'zbekistonning ta'lim tizimi va, bilvosita, iqtisodi rivojlanishiga olib keladi.

#### *Adabiyotlar ro'yhati*

1. <https://www.oecd-ilibrary.org/education>
2. <https://www.adscientificindex.com/university-ranking/?funding=Private>
3. [https://en.wikipedia.org/wiki/Harvard\\_University\\_endowment](https://en.wikipedia.org/wiki/Harvard_University_endowment)
4. Smith, Kim; Petersen, Julie Landry, 2006, *What Is Educational Entrepreneurship?*, Written for *Educational Entrepreneurship: Realities, Challenges, Possibilities*, edited by Frederick M. Hess, Harvard Education Press 2006, at <http://gseweb.harvard.edu/hepg/educationalentrepreneurship.html>
5. Frederick M. Hess, *Educational Entrepreneurship: Realities, Challenges, Possibilities*, Harvard Education Press, 2006
6. Harvard Education Press, 2006 [6] Charles W. Lavaroni, M.S. and Donald E. Leisey, Ed.D., *Bringing the Excitement of Entrepreneurism to the Public Schools*, at <http://www.edentrepreneurs.org/edupreneur.php>
7. O'RQ-637-son 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida qonuni
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/04/29/wages/>
9. Mualliflar ishlanmasi.